



Committee to Protect Journalists

23-yanvar 2017-yil

Shavkat Mirziyoyev

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti

[Presidents\\_office@press-service.uz](mailto:Presidents_office@press-service.uz)

Hurmatli Prezident Mirziyoyev,

O'zbekistonning ikkinchi prezidenti sifatida qasamyod keltirganingizdan bir oy o'tib, biz, jurnalistlarni himoya qilish qo'mitasi, respublikaning birinchi rahbari, marhum Prezident Islom Karimovning ommaviy axborot vositalariga nisbatan repressiv siyosatini to'xtatish hamda jurnalistlar faoliyatiga to'siq bo'layotgan cheklovlarni yo'q qilishga da'vat etib, Sizga murojaat qilmodamiz.

Saylovoldi kampaniyasi davomida Siz hukumatning fuqarolar oldidagi hisobdorligini oshirishga qaratilgan islohotlarni amalga oshirishni va'da qildingiz. Bunday hisobotchilikka yetishishning eng to'g'ri yo'llaridan biri mustaqil ommaviy axborot vositalarining jazolanishdan qo'rqmay ishlashini kafolatlashdan iborat.

Avvalgi prezident 2005-yildan buyon mustaqil va tanqidiy matbuotni yo'q qildi, jurnalistlarni qamadi yoki mamlakatni tark etishga majbur qildi. O'zbekiston Konstitutsiyasi so'z erkinligi va ma'lumotni izlash hamda tarqatish huquqini (29-modda), matbuot erkinligini (67-modda) kafolatlab, senzurani taqiqlasa-da (67-modda), O'zbekiston qamalgan jurnalistlar soni bo'yicha Markaziy Osiyoda birinchi o'rinda turadi. Kamida to'rt jurnalist ishini bajargani uchun qamalgan. Yana biri o'z xohishiga zid ravishda ruhiy kasalxonaga yotqizilgan.

"Erk" muxolifat gazetasidan Muhammad Bekjonov va Yusuf Ro'zimurodov, Qo'mita tadqiqotiga ko'ra, dunyo bo'ylab eng uzoq muddat qamoqda qolayotgan jurnalistlardir. Ikkovi siyosiy sabablar bilan 1999-yil sentabrida qamalgan. Bekjonov 14 yilga, Ro'zimurodov esa 15 yilga ozodlikdan mahrum etilgan edi. 2012-yil yanvarida Bekjonov ozod etilishidan oldin uning qamoq muddati yana besh yilga uzaytirildi, bunga sabab etib esa uning qamoqdagi qoidalarni buzganligi ko'rsatildi. 2014-yil mayida ozod etilishi kutilgan Ro'zimurodov jazosi ham qamoq qoidalarini buzganlik iddaosi bilan uch yilga uzaytirildi.

"Ozod ovoz" mustaqil axborot sayti uchun Samarqand viloyatida fermerlar huquqlarining davlat mansabdorlari tomonidan buzilishi haqida reportajlar tayyorlagan Dilmurod Sayidni 2009-yilda sud tovlamachilik va hujjatlarni soxtalashtirish ayblari bilan 12,5 yilga ozodlikdan mahrum etdi.

Hozirda ishlayotgan "Uznews" axborot sayti hamda AQSh hukumati mablag'i hisobiga faoliyat yuritadigan "Ozod Yevropa/Ozodlik Radiosi" va "Amerika Ovozi"

**CHAIRMAN**  
Sandra Mims Rowe

**VICE CHAIR**  
Kathleen Carroll

**HONORARY CHAIRMAN**  
Terry Anderson

**EXECUTIVE DIRECTOR**  
Joel Simon

**DIRECTORS**  
Stephen J. Adler REUTERS

Franz Allina

Amanda Bennett

Krishna Bharat

Rajiv Chandrasekaran

Susan Chira THE NEW YORK TIMES

Sheila Coronel COLUMBIA UNIVERSITY  
GRADUATE SCHOOL OF JOURNALISM

Josh Friedman  
CAREY INSTITUTE FOR GLOBAL GOOD

Anne Garrels

Cheryl Gould

Charlayne Hunter-Gault

Jonathan Klein GETTY IMAGES

Jane Kramer THE NEW YORKER

Mhamed Krichen AL-JAZEERA

Isaac Lee UNIVISION

Lara Logan CBS NEWS

Rebecca MacKinnon

Kati Marton

Michael Massing

Geraldine Fabrikant Metz  
THE NEW YORK TIMES

Victor Navasky THE NATION

Clarence Page CHICAGO TRIBUNE

Ahmed Rashid

David Remnick THE NEW YORKER

Alan Rusbridger  
LADY MARGARET HALL, OXFORD

David Schlesinger

Karen Amanda Toulon BLOOMBERG NEWS

Jacob Weisberg THE SLATE GROUP

Jon Williams ABC NEWS (*Ex Officio*)

Matthew Winkler BLOOMBERG NEWS

330 7th Avenue, 11th Floor  
New York, NY 10001 USA  
PHONE: +1 (212) 465-1004  
FAX: +1 (212) 465-9568  
info@cpj.org

www.cpj.org



Committee to Protect Journalists

radiosi uchun viloyat huquq-tartibot organlarida korrupsiyani fosh qilib, reportajlar tayyorlagan jurnalist Solijon Abduraxmonov narkotik moddaga egalik qilish aybi bilan hozirda 10 yillik qamoq jazosini o'tamoqda. U 2008-yilda [qamalgan](#). Jurnalistlarni himoya qilish qo'mitasi bu ayblovlar jurnalistni kasbiy faoliyati uchun jazolash maqsadida soxtalashtirilgan, deb hisoblaydi.

Marhum Prezident Islom Karimov jiyani Jamshid Karimov viloyatdagi og'ir ijtimoiy va iqtisodiy ahvol haqida xabar bergani uchun 2012-yil yanvaridan buyon Samarqanddagi ruhiy kasalxonada saqlanmoqda. Bu uning ikkinchi marta majburan ruhiy kasalxonaga yotqizilishi: birinchisi 2006-yil sentabridan 2011-yil noyabrigacha davom etgan.

Yuqorida qayd etilgan jurnalistlarning salomatligi qamoqda yomonlashdi. Bekjonov, Ro'zimurodov va Sayidda sil kasali aniqlangan, Abduraxmonov va Karimov oshqozon va ichak yaralaridan aziyat chekmoqda.

Aholisi 32 million odamga teng O'zbekiston Markaziy Osiyoning eng katta davlati hisoblansa-da, Tashqi ishlar vazirligining internet saytida 2017-yilning 3-yanvarida e'lon qilingan [ro'yxatga ko'ra](#), respublikada bor-yo'g'i 10 mamlakatning asosan davlat axborot agentliklari xodimlari bo'lgan 33 xorijiy jurnalist akkreditatsiya qilingan. Bizning [tadqiqotga ko'ra](#), 2005-yil may oyida Andijon shahrida xavfsizlik kuchlari yuzlab namoyishchini otib o'ldirganidan keyin hukumat "Bi-Bi-Si Jahon xizmati" (BBC World Service), "Ozod Yevropa/Ozodlik Radiosi" (RFE/RL), "Assosheyted Press" (Associated Press), "Doyche Velle" (Deutsche Welle) va "Urush va tinchlikni yoritish instituti" (IWPR) byurolarini [yopdi](#). Xorijiy jurnalistlar mamlakatdan quvildi, o'zbekistonlik jurnalistlar esa qamaldi yoki rasmiylar tomonidan o'zi va oila-a'zolari ta'qib qilingani sababli xorijga chiqib ketishga majbur bo'ldi.

Biz Sizni salohiyatingizdan foydalanib, saylovoldi kampaniyasi davomida berilgan hukumatning fuqarolar oldida hisobdorligini oshirish haqidagi va'dani bajarish yo'lida avvalambor Bekjonov, Ro'zimurodov, Sayid, Abduraxmonov va Karimovlarni ozod etishni buyurish, hukumat bundan buyon jurnalistlarni o'z ishini bajargani uchun qamamasligini bayon qilishga chaqiramiz. O'zbekistonliklarni internet orqali xabarlarini bemalol olishidagi to'siqlarni bartaraf etib, shuningdek, O'zbekistonni yoritish uchun xorijiy jurnalistlarni yana mamlakatga taklif etish ham hozirgi o'tish davrida matbuot erkinligiga ishonchingiz va majburiyatingizni namoyish qiladi.

Biz Siz bilan uchrashib, ushbu dolzarb masalalarni bevosita muhokama qilish imkoniga xursand bo'lardik.

Hurman va ehtirom ila,

Kortni Radsh

Advokasi masalalari bo'yicha direktor



Committee to Protect Journalists

Jurnalistlarni himoya qilish qo'mitasi

Cc: O'zbekistonning AQShdagi Elchixonasi

O'zbekistonning Belgiyadagi Elchixonasi